
Ramazon oyi munosabati bilan "Ibn Sino" mahallasida ham iftorlik tadbiri o'tkazildi

Muborak Ramazon oyi munosabati bugun "Ibn Sino" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi "Mumtoz" tantanalar majmuasida iftorlik dasturxonlari yozildi. Unda mahallaning yuz nafardan ziyod fuqarllari ishtirok etishdi.

Tadbirda mahalla faollari bugungi kunda inson qadrini ulug'lash, fuqarolar manfaatlarini himoya qilish maqsadida respublikamiz hududlarida, shu jumladan shahrimizda olib borilayotgan ishlar barchani birdek mamnun etayotganligini ta'kidladilar. Shuningdek, mazkur hududlarda so'nggi yillarda olib borilayotgan qurilish, bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari ko'lami ortib borayotganligi, bu borada kelgusida ham bajarilishi rejalashtirilgan ishlar haqida ham ma'lumotlar berildi.

Iftorlikda ishtirok etgan ro'zador nuroniylarimiz yurtimizga tinchlik-osoyishtalik, dehqonlarimiz hosiliga baraka, bunyodkorlik ishlariga rivoj tilab duoga qo'l ochishdi.

Bu kabi iftorliklar mahallalar hamda xonadonlarda davom etmoqda.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-31 10:42:45